XALQ DEPUTATLARI ASAKA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-15-120-1-17-K/25 Asaka tumani

Asaka tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 18-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 01/05/2-15-/2483-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Asaka Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Asaka tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **208 504,4 mln.so‘m** va xarajatlari esa **208 504,4 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Asaka tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **871 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 613,8 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan

vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Raximov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (T.Shakarimov), tuman soliq inspeksiyasi (I.Raximov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta′minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (K.Teshaboyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **QOSIMOV QOBILJON QOSIMOVICH**

Xalq deputatlari Asaka tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-120-1-17-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Asaka tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz koʻrsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	JAMI
	JAMI	**208,504,350**
1	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	5,151,000
2	Foyda soligʻi	1,800,400
3	Aylanmadan olinadigan soliq	12,595,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	77,642,400
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1,417,000
6	Aksiz soligʻi jami	3,474,400
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
	benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi isteʼmolchiga realizatsiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi	*3,474,400*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10,124,000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	24,347,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	17,366,000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	30,251,000
11	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	490,000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7,666,000
	shundan: Qishloq xoʻjaligi korxonalari boʻyicha suv soligʻi	*5,785,000*
	boshqa korxonalar	*1,881,000*
	Qishloq xoʻjaligi korxonalari suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-2,314,000*
13	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	8,282,050
15	Yigʻimlar	2,862,200
16	Jarimalar	5,961,900

17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	1,388,000

Xalq deputatlari Asaka tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-120-1-17-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Asaka tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**208,504,350**
1	Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi	*75,035,928*
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*3,831,600*
2	Madaniyat boʻlimi	*15,532,769*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	*8,814,479*
4	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	*1,708,151*
5	Sport boʻlimi	*11,233,356*
6	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	*2,571,985*
7	Irrigatsiya boʻlimi	*1,960,561*
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	*2,200,580*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy boʻlimi Ijtimoiy koʻnikma markazlari xarajatlari	*327,600*
10	Hokimiyat	*61,467,401*
	shundan:	
	Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi	*215,226*
	Qurilish va uy-joykommunal xoʻjaligi boʻlimi	*450,614*
	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	*624,740*
	Oila va xotin-qizlar boʻlimi	*434,146*
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*37,586,161*
	“Mahalla budjeti” jamgʻarmasi mablagʻlari	*2,442,000*
	Zahira jamgʻarmasi	*2,613,761*
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*982,848*
	shundan:	
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*147,623*
	Axborot-kutubxona markazlari	*835,225*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	26,668,692
13	Boshqa tashkilotlar	0